

JARAYON



Jarayon

1-sektor hududidagi Tul, Qal'acha va G'aznov mahallalarida bugun amalga oshirilayogan ishlar tuman hokimi o'rribosari Sodiqjon Murzoyev tomonidan o'rganildi va ko'zdan kechirildi. Hududda o'tgan 2024 yil davomida keng ko'lamlı qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va bunday ishlar bugungi kunda ham davom ettirilmoqda.


Ayniqsa, hududda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari va imjtimoiy soha ob'ektlaridagi isitish mavsumidagi muammolar ham o'rganildi. G'aznov mahallasidagi tibbiyot muassasasi xodimlari bilan mahalla yettiligi iishtirokida mazkur maskandagi ishlar, ayniqsa, isitish holati va tibbiyot xodimlariga yaratib berilgan sharoitlar tuman hokimi o'rribosari e'tibor markazida bo'ldi.

O'tgan yili turli davlat dasturlari va "Openbudget" asosida ko'p loyihibar amalga tatbiq etildi. Tul mahalla fuqarolar yig'inidagi 18-sonli maktabgacha ta'lif binosini rekonstruktsiya qilish ishlariiga 6 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan va o'rganishlar davomida hokim o'rribosari qurilish mutasaddilariga ishlar sifatiga e'tiborliroq bo'lismeni alohida ta'kidladi.

G'aznov mahallasida ham "Openbudget" loyihasi asosida "Toshmazor" ko'chasida betonlashtirish ishlari jarayoni ham ko'zdan kechirildi. Mazkur ishlarga loyiha doirasida salkam 1 milliard 300 million so'm mablag' yo'naltirilgan.











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-04 14:55:27